

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ
МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ
БОШҚАРИШ SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЁЎНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich

AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович

ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Vaxshilloevich

TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич

ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna

APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэльевна

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo

DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фархад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY
XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR
TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA
TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA
PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabjanovna</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	297-301

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna,
Farg'ona Politexnika Instituti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, assistenti,
e-mail: m.a.sultonova@ferpi.uz, +998 91 663 81 68.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tahlil etishdan iborat. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish ko'zlangan maqsadlar an'anaviy buxgalteriya usullaridan ustun bo'lgan jihatlari, buxgalterning ma'lumotlarni tezroq va samaraliroq talqin qilish va hisobot berish qobiliyatini oshiradigan imkoniyatlari o'rganildi. Bundan tashqari iqtisodiyotni raqamlashtirishning moliyaviy hisobotni shakllantirishga, ta'sirini sharhlashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish, IT texnologiyalari, elektron iqtisodiyot, elektron hisobot, buxgalteriya hisobining transformatsiyasi, axborot iqtisodiyoti.

Султонова Муштарий Абдулаббосовна,
Ферганский Политехнический Институт,
ассистент, кафедры "Бухгалтерский учет и аудит",

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. Целью статьи является анализ социально-экономических отношений в организации бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики. Однако были изучены аспекты оцифровки бухгалтерского учета, в которых предполагаемые цели превосходят традиционные методы бухгалтерского учета, возможности, которые повышают способность бухгалтера интерпретировать и сообщать данные быстрее и эффективнее. Кроме того, были предприняты попытки интерпретировать влияние цифровизации экономики на формирование финансовой отчетности


Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация бухгалтерского учета, IT-технологии, электронная экономика, электронная отчетность, трансформация бухгалтерского учета, информационная экономика.

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna,
Fergana Polytechnic Institute,
Assistant, Department of Accounting and Audit,

ISSUES OF ACCOUNTING ORGANIZATION IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. The purpose of the article is to analyze socio-economic relations in the organization of accounting in the digital economy. However, aspects of accounting digitization have been studied in which the intended goals are superior to traditional accounting methods, opportunities that increase the accountant's ability to interpret and report data faster and more efficiently. In addition, attempts were made to interpret the impact of digitalization of the economy on the formation of financial statements.

Keywords: digital economy, digitalization of accounting, IT technologies, electronic economy, electronic reporting, transformation of accounting, information economy.



Kirish. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyatning o'ziga xos makonini yaratdi hamda shakllantirdi. Hozirgi kunda bizning sivilizatsiyamizning deyarli barcha nomoddiy mahsulotlari raqamli bo'lib bormoqda: fandan san'atgacha, individual ma'lumotlardan biznes va davlat sektori ma'lumotlarigacha. Hamma sohalaridagi o'zgarishlarning sababchisi sifatida, raqamli texnologiyalar moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Fuqarolar tomonidan turli qurilmalari sotib olish, foydalanish, o'rganish yoki investitsiya qilish usullarini bugungi kun realligidir. Buxgalteriya hisobning ajralmas qismi bo'lgan moliyaviy hisobotlar ham raqamli format ko'rinishida shakllantirish talabi yuqoridagilarni hisobga olgan holatda o'z o'zida amalga oshirila bo'shladi. Kichik korxonalar va tashkilotlar boshlab yirik korporatsiyalar ham moliyaviy ma'lumotlari zamonaviy iqtisodiyotning muhim elementi sifatida raqamli texnologiyalar yordamida shakllantirishga muhim urg'u qaratdi.

Samarali foydalanish uchun moliyaviy hisobotlarni bir necha usul bilan ko'rib chiqish kerak. Ushbu bosqichda ongli savol tug'ilishi mumkin: biz moliyaviy ma'lumotlarni olish va taqdim etish uchun foydalanadigan texnologiyaning kuchi ularni samarali boshqarish va ular bilan ishlashga imkon beradimi? Ushbu maqolada biz ushbu savolga javob topishga harakat qilamiz.

Raqamli moliyaviy hisobot an'anaviy shakllardan (qog'oz, elektron) emas, balki tuzilgan, mashinada o'qiladigan shakldan foydalanadi, shundan kelib chiqib, u buxgalterning hisobot bilan ishlashini hisoblab chiqishi va dasturiy ta'minotni moslashuvchan, dinamik va professional buxgalterlar uchun maslahatchi rolini bajarishi mumkin.

Raqamli moliyaviy hisobot moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS), milliy buxgalteriya standartlariga yoki boshqa hisobot sxemalariga muvofiq umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar korxonaning operatsion modelini, ya'ni korporativ strategiyani kundalik faoliyatda qo'llash tartibi va usullarini o'zgartiradi, shuningdek investitsiyalar samaradorligini oshiradi va bozorda ilgari noma'lum bo'lgan noyob imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi [7].

Raqamli transformatsiya sizga ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadigan xodimlar tomonidan, masalan, qo'shimcha zamonaviy texnologiyasidan foydalangan holda, barcha kerakli ma'lumotlarni olish bosqichida sezilarli foyda olish imkonini oshirib beradi.

Hech kimga sir emas-dunyo tez o'zgarimoqda va rivojlanmoqda. Texnologik innovatsiyalar faoliyatning mutlaqo barcha sohalariga ta'sir ko'rsatishi, shu munosabat bilan ko'plab korxonalar, tashkilotlar va hatto davlat idoralari raqamli texnologiyalar xususan bulutli dasturlardan, o'rnatilgan sun'iy intellektga ega kompyuterlar va gadjetlardan, internetdan, hajmli ma'lumotlardan, elektron imzolar va shaxsiy hisob qaydnomalari yordamida shaxsni tasdiqlashdan va hokazolardan faol foydalanmoqdalar. Kompyuter texnologiyalari, elektron hujjatlar, raqamli platformalarning rivojlanishiga katta turtki bo'lib shubhasiz koronavirus pandemiyasi COVID – 19 bo'ldi. An'anaviy shakliga ko'nikkan ko'pchilik tizimlar "masofadan turib" ishlash, o'qish va biznes yuritishga majbur bo'ldi. Albatta, bu moliyaviy yo'qotishlarsiz

amalga oshirish imkonsiz edi. Ammo bunga boshqa tomondan nazar tashlaydigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi biznes va korxonalar uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi, bu esa ishlashni ancha osonlashtirdi [2].

Bu omil mamlakatning raqobatbardoshligini, fuqarolarning hayot sifatini, iqtisodiy o'sishni va milliy suverenitetni oshirishni ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari ilmiy dunyoda keng muhokama qilinadigan aktual dolzarb mavzulardan sanaladi [5]. Tashkilotlar faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan raqamli iqtisodiyot milliy buxgalteriya hisobi va hisobotlarini isloh qilish jarayoniga o'z ta'sir ko'rsatmasdan qolishi mumkin emasdi.

Axborot-kommunikatsiya va raqamli IT texnologiyalari jarayonlarni faollashtirish, kompyuter texnologiyalari sohasida zamonaviy yutuqlarni joriy etish orqali erishilmoqda. Buxgalteriya hisobi, nazorat va boshqaruv tizimlarini o'zgartirishning umumiy mexanizmini aniqlash, yagona axborot makonini yaratish talabi buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilishning tizimning konseptual tadqiqotlar zarurligini belgilaydi [11].

Buxgalteriya nazariyasi va buxgalteriya amaliyoti mazmunini o'zgartirish axborot va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, matematik modellashtirish, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish bilan bog'liq. Axborot makoniga katta so'rov berilishi raqamli asrning belgisiga aylanmoqda. Shunday qilib, buxgalteriya hisobini rivojlantirish trayektoriyasi zamonaviy raqamli texnologiyalar, fundamental va amaliy fan yutuqlarini o'zida mujassam etishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Birinchi navbatda biz tadqiqot mavzusining asosi bo'lgan "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasini yaxshi bilishimiz va anglashimiz zarur. "Raqamli iqtisodiyot" termini dunyoda internet tizimlari rivojlanishi bilan bog'lanadi Kanadalik iqtisodchi Don Tapskott va amerikalik IT texnologiyalari mutaxassisi Nicholas Negroponte ushbu atamaning asoschilari hisoblanadi. 1995-yilda "Being Digital" kitobida Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" atamasini qo'llagan. [3; 7 b].

Bugungi kunda dunyoda ilmiy va IT texnologiyalar olamida "raqamli iqtisodiyot" termining umumiy ta'rifi mavjud emas, lekin juda ko'plab turli ta'riflari uchratish va ko'rish mumkin, buni isbotini milliy olimlarimizning darslik va qo'llanmalari va turli izlanishlarida ham ko'rish mumkin, misol uchun G.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanovning "Raqamli iqtisodiyot asoslari" nomli darsligida "raqamli iqtisodiyot" atamasiga 4 xil tarifni keltirgan [3; 10 b].

Yana bir milliy olimlarimizdan R.H. Ayupov o'zining "Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida "raqamli iqtisodiyot" terminiga turli ta'riflarini ko'pligini aytib o'zining quyidagi funksional ta'rifni keltirgan "Raqamli (elektron) iqtisodiyot hamda elektron tijorat bu – axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyot turidir. Bu iqtisodiyot axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibriddunyo barcha iqtisodiy faoliyat subyektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoni obyektlari va subyektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin. To'laqonli o'zaro aloqa qilish uchun barcha iqtisodiyot obyektlari va subyektlari sezilarli raqamli tarkibiy qismlarga ega bo'lishlari lozim [10; 28 b].

Xoriji adabiyotlarida ham ushbu termining turli ko'rinishlari uchratish mumkin misol uchun G.G. Golovenchik "Raqamli iqtisodiyot-bu davlat, biznes hamjamiyati va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik munosabatlar tizimi bo'lib, tarmoq raqamli texnologiyalaridan keng foydalanish orqali global axborot makonida ishlaydi. ishlab chiqarishning raqamli turlari va shakllarini yaratish va iste'molchiga mahsulot va xizmatlarni ilgari surish, bu boshqaruv usullari va texnologiyalarida doimiy innovatsion o'zgarishlarga olib keladi. ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirish" [19; 13 b] deb o'z yakuniy xulosa fikrini aytgan.

Rus olimasi L.I. Sergeyeva "Raqamli iqtisodiyot-bu ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli formadagi ma'lumotlar bo'lgan, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanishning an'anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda har xil turdagi ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovarlar va xizmatlarni etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan iqtisodiy faoliyat" [20; 9 b] deb tariflagan.

Iliy maqolalarda ham turli ko'rinishdagi "raqamli iqtisodiyot" terminiga tariflarni uchratish mumkin misol uchun "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya" nomli maqolada "raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir" deb ta'riflangan [8].

"Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda" nomli maqolada "Raqamli iqtisodiyot noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyot xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishdagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir" deb ta'riflangan [12].

"Iqtisodiyotdagi raqamli transformatsiya" nomli maqolada "Raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilishni, yangi bozorlarga chiqish yo'nalishlarini belgilab beradi. Yangi biznes modellari mijozlarga yo'naltirilgan (customer centric) bo'lib, ularning strukturasi to'liq belgilab beradi, ya'ni mijoz talabini oldindan belgilangan muhim taklifini hisobga olib, xaridor tomonidan mahsulotdan foydalanish davrida, o'z vaqtida (just-in-time) yetkazib berishdan boshlab daromad kelishgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi" deb ta'riflangan [18].

"Raqamli iqtisodiyot" nomli maqolada "Raqamli iqtisodiyot-bu ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlar bo'lib, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish an'anaviy boshqaruv shakllari bilan solishtirganda har xil turdagi ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir. tovarlar va xizmatlar yetkazib berish" deb ta'riflangan [15].

Yuqoridagilar fikrlarga asoslanib bizning fikrimizcha milliy olimlarimizdan R.H. Ayupov fikri va berilgan tarifi to'laroq va asoslidir. Bundan tashqari berilgan tariflar bilan birgalikda raqamli iqtisodiyotning mohiyatini anglash uchun ko'plab qaror va farmonlar qatorida birgina

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorda keltirilgan quyidagi vazifalarni keltirish mumkin:

- 2023-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko'paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish;

- dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali "raqamli tadbirkorlik"ni rivojlantirish, 2023-yilga kelib ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga etkazish [1] bundan ko'rinadiki tanlangan tadqiqot bugungi kunning asosiy dolzarb mavzularidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni raqamli modernizatsiya qilish sharoitida buxgalteriya tizimini o'zgartirishning nazariy asoslarini umumlashtirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun mantiqiy tahlil, nazariy umumlashtirish usuli va tizimli yondashuv qo'llaniladi.

Natija va muhokamalar.

Bugungi kunga kelib barcha tarmoq va tizimlar doirasida IT texnologiyalari bilan integratsiyalashuv, buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti hamda buxgalteriya kasbi zamonaviy sharoitida rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Mutaxassislar va ekspertlar hamda kasb vakillari raqamli ijtimoiy-iqtisodiy muhitda raqobatbardosh bo'lish uchun tegishli vositalar va ko'nikmalar ega bo'lishi zamonaviy tendensiyaning talabidir [13]. Shu bilan birgalikda moliyaviy xizmatlar, shu jumladan buxgalteriya hisobi rivojlanadi va IT texnologiyalariga ko'proq bog'liq bo'lib boradi.

Ekspertlar fikriga ko'ra bugungi kunda axborot raqobatbardoshlikning asosiy manbaiga aylanadi. Ma'lumotlarni to'plash, tavsiflash va qayta ishlash iqtisodiy jarayonlarda foydalanish uchun qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ammo raqamli fikrlashdan foydalanish faqat yangi texnologiyalarga qaratilmagan. Mutaxassisning analitik xulosalar va strategik takliflarni baholash, sintez qilish qobiliyati katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun texnologik yangiliklar (blokcheyn, sun'iy intellekt, Bigdata) va buxgalteriya kompetensiyalarining kombinatsiyasi samaraliroq bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobini rivojlantirish mavjud nazorat, tahlil va buxgalteriya tizimidagi kamchiliklarni bartaraf yetishga qaratilgan IT vositalari va texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq. Boshqaruv axborotini qo'llab-quvvatlashning ravshanligi, qisqaligi va dolzarbligini oshirishga urinishlar boshqaruv strategiyasi va maqsadlari qabul qilinadigan samarali buxgalteriya bo'limini yaratishda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Buxgalteriya hisobining raqamli transformatsiyasini amalga oshirish kelajakda rivojlanib o'sib boradi, chunki IT innovatsiyalaridan foydalanish yangi vazifalarni hal qilish, axborotni qayta ishlash va uzatish tushunchalarini modernizatsiya qilish imkonini beradi hamda buxgalteriya jarayonlari samaradorligini oshirishga yordam beradi. Boshqaruv jarayonlari va IT xizmatlarini birlashtirish zarurati odatdagi buxgalteriya hisobi va hisobot funksiyalariga qo'shiladi. Natijada, yagona raqamli platforma bilan birlashtirilgan alohida bo'limlar va foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash sifati oshadi. Bu nafaqat ma'lumotlarni qog'oz formatidan raqamli formatga o'tkazish, balki IT vositalari yordamida hisobotlarni

qidirish, qayta ishlash, sintez qilish, xatolarni boshqarish va taqqoslash, jarayonlarni vizualizatsiya qilish va ularning natijalarida ko'rinadi.

Shunday qilib, axborot iqtisodiyoti talablariga muvofiq buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilish dasturiy ta'minot, axborot, tashkiliy va uslubiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak. Ushbu komponentlar veb-tizim atrofida va o'zaro birlashtirilgan asosiy axborot tizimlariga aylanadi. Ishonchli va ommaviy axborot-tahlil tizimi tashkilot faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini boshqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va avtomatlashtirishni ta'minlaydi [4]

Buxgalteriya hisobida raqamli xizmatlarni sifatli rivojlantirish nafaqat qaror qabul qilishda inson omilini minimallashtirishga, balki jarayonlar to'g'risida yuqori sifatli ma'lumotlarni o'z vaqtida olishga imkon yaratadi, shunga qaratilgan. Shu bilan birga, raqamlashtirish buxgalteriya tizimining imkoniyatlarini oshiradi, amalga oshirish vositasi bo'lib IT texnologiyalari hisoblanadi.

To'g'ri tashkil etilgan hamda yaxshi ishlaydigan IT tizimi jarayonlarni boshqarishni yuqori darajadagi samarali bo'lishini ta'minlashga qodir. Ba'zi davlat korxonalari zamonaviy ERP¹ tizimlaridan foydalangan holda biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning integratsiyalashgan yechimlarini faol ravishda amalga oshirmoqda.

Ushbu korxonalar ichki IT infratuzilmasini modernizatsiya qilishning yangi bosqichining namunasidir: avtomatlashtirishdan integratsiyalashgan boshqaruv tizimlariga o'tishdir. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish bilan axborotni qayta ishlash va uzatishning yangi konsepsiyasi yaratiladi, xususan:

- Real vaqt rejimida operatsiyalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hisobga olish;
- elektron ma'lumotlar almashinuvi-birlamchi ma'lumotlardan hisobotgacha;
- turli biznes sohalarida moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobotlarining ilg'or tili sifatida;
- "bulutli texnologiyalar" hisoblash, bulutlarga asoslangan buxgalteriya operatsiyalari;
- sun'iy intellekt — zamonaviy texnologik innovatsiyalar bilan matematik modellashtirishni modernizatsiya qilish;
- BigData²-ularning samaradorligi, aniqligi va tezligini oshirish uchun hisob-kitoblarda foydalanish;
- blockchain³-axborotni tizimlashtirish va samarali boshqarish, nazorat qilish.


Shunday qilib, avtomatlashtirish zamonaviy ilmiy va texnologik taraqqiyotning yo'nalishlaridan biri sifatida tushunilishi kerak, bu o'z - o'zini tartibga soluvchi texnik vositalar va matematik usullar majmuasidir, o'z navbatida firma xodimlarini bevosita ishlab chiqarish, shuningdek, energiya, turli materiallar, mahsulotlar yoki axborotdan foydalanish jarayonlarida ishtirok etishdan ozod qilish uchun faol foydalanadi [6].

¹ ERP (Enterprise Resource Planning, enterprise Resource Planning) — bu ishlab chiqarish va operatsiyalarni birlashtirish, inson resurslarini boshqarish, moliyaviy menejment va aktivlarni boshqarish bo'yicha tashkiliy strategiya bo'lib, umumiy ma'lumotlar va faoliyatning barcha sohalar uchun jarayon modelini taqdim etadigan ixtisoslashtirilgan integratsiyalashgan dasturiy ta'minot to'plami orqali korxonalar resurslarini doimiy muvozanatlash va optimallashtirishga qaratilgan.

² BigData (ing. big data)-2000-yillarning oxirida paydo bo'lgan ulkan hajmlardagi va turli xilma-xillikdagi ma'lumotlarni belgilashdir, ularni odatiy metodlar bilan bilan qayta ishlashni imkoni yoq shu bilan birga an'anaviy ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga muqobil tizimdir.

³ Blockchain (ing. blockchain, block chain)- — bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy buxgalterning imkoniyatlarini kengaytirmoqda, buxgalteriya hisobi sifati va tezkorligini oshiradi, turli xil hisob-kitoblarni integratsiyalashning zamonaviy innovatsion yondashuvlarini shakllantiradi [9]. Bu shuni anglatadiki buxgalteriya hisobi metodologiyasida texnologik IT-yangiliklardan foydalanish uni tashkil yetish shaklini o'zgartiradi, xodimlarning kasbiy malakasi va javobgarlik darajasini oshiradi, axborotni qo'llab-quvvatlash tizimini sifat jihatidan yangi shaffoflik, xavfsizlik, samaradorlik, dolzarblik darajasiga olib chiqadi. Hujjat aylanishini yaxshilash uchun IT innovatsiyalaridan foydalanish ayniqsa muhimdir. IT texnologiyalar tufayli ko'plab buxgalteriya vazifalar hal qilindi. 1-rasm :



1-rasm. IT texnologiyalarni buxgalteriya tizimining vazifalarini hal qilishi.

IT texnologiyalaridan foydalangan holda buxgalteriya hisobining afzalliklari rasmiylashtirish bilan bog'liq masalalar tezkorroq va arzonroq hal qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, buxgalteriya hisobi va hisobotidagi blokcheyn ma'lumotlarni saqlash xavfsizligini oshiradi va buxgalteriya hisobida amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlashni ta'minlaydi.

Ma'lumotlarni ishonchli sinxronlashtirish, qasddan yoki kutilmagan yo'qotishlar va almashtirishlardan himoya qilish bilan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni nazorat qilish, blockchain texnologiyalari orqali tubdan yangi bosqichga olib chiqishga va buxgalteriya tizimining shaffoflik muammosini yechim bo'la oladi.

“Buxgalteriya hisobini raqamlashtirishning umumiy mexanizmi quyidagi elementlarning birikmasi hosil bo'ladi:

- buxgalteriya modernizatsiya siyosati (axborot va raqamli siyosat, aloqa siyosati);
- qulay muhitni yaratish (buxgalteriya va boshqaruv xodimlarining tuzilishi, faoliyat tamoyillarini sozlash);
- raqamli infratuzilma tarmoqlari (Internet, telekommunikatsiya, elektron identifikatsiya va autentifikatsiya, axborot xavfsizligi, bulutli infratuzilma);
- raqamli yechimlarning yagona makoniga (elektron buxgalteriya, elektron tijorat, elektron logistika, raqamli moliya, IT standartlari) joriy yetish va integratsiya qilish;
- ichki jarayonlarni tashqi platformalar (davlat registrlari, xizmatlari) bilan integratsiya qilish“ [16].

Buxgalteriya hisobini raqamlashtirishga taklif yetilayotgan kompleks yondashuv buxgalterning raqamli ko'nikmalari va malakalari ro'yxatini, zamonaviy IT texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Buxgalterning raqamli ish joyiga oqilona yondashish to'g'ri tashkil etishni talab qiladi, chunki u uning ishining mazmuni va xususiyatiga mos kelishi kerak.

Bu buxgalteriya xodimlarining samarali faoliyati uchun axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish kerak. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalterning ish joyi buxgalteriya jarayonini umumiy boshqarishni tartibga solish va rejalashtirishni raqamlashtirishni ta'minlaydi; buxgalteriya hisobi, nazorat va tahlilni tashkil qilish jarayoni raqamlashtiriladi; boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tayyorlashni axborotlashtiriladi.

Yuqoridagilar munosabati bilan "buxgalteriya xizmatiga yuklangan vazifalar raqamli, virtual, mobil bo'ladi:

- tashkilotning hisob siyosatini o'z vaqtida ishlab chiqish va amalga oshirish (uning barcha tarkibiy qismlari uchun);
- buxgalteriya hisobi axborot tashuvchilarini ro'yxatdan o'tkazishning qonuniyligi, o'z vaqtida va to'g'riligi;
- daromad va xarajatlar buxgalteriya ishonchliligi, daromad va tashkilotning xarajatlar taqsimotining amalga oshirish uchun buxgalteriya;
- tashkilotning daromadlari va xarajatlari byudjetlarining ijrosi natijalarini hisobga olishning aniqligi;
- tegishli to'lovlarni, ajratmalarni hisoblashning to'g'riligi va ishchilar va xodimlar, byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar, davlat byudjeti va boshqalar bilan hisob-kitoblarning o'z vaqtida bajarilishi;
- inventarizatsiyani hisobga olishning to'liqligi;
- tashkilotning qarzdorlari va kreditorlari bilan hisob-kitoblarning to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi;
- tashkilotning iqtisodiy faoliyatini nazorat qilish va tahlil qilish ishlarini amalga oshirish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun buxgalteriya ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va axborot bazasini qabul qilish;
- buxgalteriya ma'lumotlarini tashuvchilarni saqlash;
- moliyaviy intizomini mustahkamlash [17, b. 128].

"Raqamli ish joylari" tushunchasi ishbilarmonlik muhitida juda tez tarqalmoqda va moslashuvchan ishlash usullari, uydan ishlash, istalgan joydan ishlash imkoniyatini yoqtiradigan xodimlarning aksariyatiga bunga ijobiy qarashmoqda. Masalan, buxgalterning raqamli ish joyi buxgalteriya xodimlarining vazifalarini bajarish usullarida moslashuvchanlikni ta'minlaydi, ularning o'zaro ta'sirini rag'batlantiradi, markazlashtirilmagan va mobil ish muhitini qo'llab-quvvatlaydi, ish uchun texnologiyalarni tanlashni ta'minlaydi. Raqamli ish joylarining afzalliklari apparat, ofis maydoni, ish safari va hokazolar uchun xarajatlarni kamaytiradi.

Shu bilan birga yuqorida keltirilgan "Raqamli ish joylari" ustun tomonlari bilan birgalikda qo'shimcha muammolar ham paydo bo'lmoqda, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy ma'lumotlardan foydalanadigan axborot tizimlari sonining ko'payishi sharoitida kiberjinoyatchilikning o'sishi; davlat organlari va xususiy sektorning axborot tizimlarida qayta

ishlanadigan jismoniy va yuridik shaxslarning identifikatsiya ma'lumotlari xavfsiz almashinuvining yo'qligi, identifikatorlarni tanlashda nomuvofiqlik, identifikatsiya ma'lumotlarini tasdiqlashning yo'qligi; axborot tizimlariga ro'yxatdan o'tish va kirishni boshqarish tizimlarida texnologik jihatdan mos kelmaydigan mexanizmlar, algoritmlar va elektron identifikatsiya va identifikatsiya protokollaridan foydalanish; murakkab, odatiy bo'lmagan harakatlar va yechimlarni talab qiladigan vazifalarni avtomatlashtirish zarurati [14].

Raqamli infratuzilma va "aqli buxgalteriya" modelidan tashqari, buxgalteriya hisobi bo'yicha raqamlashtirish nuqtai nazaridan:

kontentdan foydalangan holda axborot iste'molchilari (ichki va tashqi) ehtiyojlari uchun mahalliyashtirilgan axborot infratuzilmasini yaratish;

Internet-tizimlari, katta va ochiq ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalangan holda real vaqt rejimida operatsion buxgalteriya ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish;

virtual texnologik jarayonlarni yaratish, 3D modellashtirish, materiallarni boshqarish obyektlarini veb-kameralar bilan tartibga solish, shtrix-kodlarni joriy etish, naqd pulsiz to'lov tizimini takomillashtirish;

sodiqlik dasturlari va kontragentlarning elektron kartalarini joriy etish;

mobil ilovalarni yaratish (texnik, ma'muriy, nazorat va buxgalteriya xodimlari uchun);

elektron hujjat aylanishi; buxgalteriya hisobida kirish va chiqish axborot oqimlarini raqamlashtirish (elektron kataloglar va ma'lumotnomalar).

Buxgalterning axborot makonining elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Kirish qurilmalar. Buxgalteriya xodimlarini barcha biznes jarayonlari to'g'risida ma'lumot olishning eng samarali usuli bilan ta'minlash kerak. Axborotni texnik vositalar bilan qayta ishlashning texnologik zanjirlarini tashkil etish individual buxgalteriya jarayonlarida tobora keng tarqalgan. Shuning uchun mehnatni funksional asosda taqsimlash, buxgalteriya xodimlarining ikki toifasi mavjudligi kerak: buxgalterlar-ma'lumotlarni kiritadigan operatorlar va mantiqiy funksiyalarni amalga oshiradigan buxgalterlar-nazoratchilar.

2. Aloqa infratuzilmasi. Birinchidan, bu elektron yozuvlarni yuritish vositalarining o'zgarishi (elektron hujjatlarni yaratish, to'ldirish va pochta orqali yuborish tartiblari); elektron aloqa vositalaridan (elektron pochta, telekonferensiyalar) keng foydalanish. Aloqa ishonchliligi ofisda ham, undan tashqarida ham "raqamli" ish joyi kontekstida eng muhim talablardan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida aloqa infratuzilmasining maqsadi hujjatlarni to'ldirish va buxgalteriya yozuvlarini shakllantirish, hujjatlarni boshqarish va ish vaqtdan foydalanishni avtomatik ravishda doimiy monitoringini joriy etishdir.

3. Biznes aloqalar. Elektron ma'lumot tashuvchilarda qayd etilgan birlamchi kirish ma'lumotlari asosida buxgalteriya ma'lumotlarini kompleks qayta ishlash korxonalar rahbarlariga ma'lumot berish uchun zarur bo'lgan tafsilotlar va samaradorlik darajasi bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ikki tomonlama yozuv tamoyiliga asoslangan yagona ma'lumotlar bazasi qo'llaniladi, uning yordamida buxgalteriya tizimi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar to'planadi va buxgalteriya tizimi yagona tizim sifatida qaraladi hamda buxgalteriya hisobi turlari bo'yicha operatsion yoki buxgalteriya hisobiga bo'linmaydi, boshqaruv, moliyaviy yoki soliq. Bu hujjatlarni markazlashtirilgan saqlashni ta'minlaydi, ularga oson kirishni ta'minlaydi va jamoa a'zolariga fayllarga o'zgartirish kiritishda, ularni real vaqtda ko'rish va almashishda hamkorlik qilish imkonini beradi.

4. Ish joyining telekommunikatsiya vositalari. Buxgalteriya ishlarining tarkibi har xil miqdordagi buxgalteriya ishlari uchun o'zgarishsiz qoladi, ammo ijrochilar ro'yxati tashkilotning hajmiga va shunga mos ravishda buxgalteriya ishlarining hajmiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ish joyidagi vositalar xodimlarning motivatsiyasi va unumdorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Texnologiyaning muhim afzalligi-bu real vaqtda rejimini ta'minlaydigan va onlayn uchrashuvlarga imkon beradigan kommunikatsiya tuzilmalari orqali.

Xulosa. Buxgalterning axborot makonining taklif etilayotgan elementlari pandemiyada, masalan, koronavirusda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fors-major holatlari sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Aloqa infratuzilmasi, kirish moslamalari, ishbilarmonlik aloqalari, ish joyining telekommunikatsiya vositalari buxgalterning axborot makonining elementlariga aylanadi. Raqamlashtirish asosida buxgalteriya hisobini tartibga solish va optimallashtirish nafaqat shaxsiy buxgalteriya funksiyalarini mahalliy ravishda o'zgartirishga imkon beradi, balki harakatlar algoritmlarini o'zgartiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni raqamli o'zgartirish davrida buxgalteriya hisobining konservativ nazariy va amaliy xarakterdagi innovatsion, uyushgan, dinamik, foydalanuvchiga yo'naltirilgan o'zgarishlarga xalaqit bermasligi kerak. Buxgalteriya hisobini raqamli o'zgartirish moliyaviy investitsiyalar, madaniy va kasbiy kompetensiya o'zgarishlarini tashkil yetish sharti bilan samarali ishlash uchun muhim qadam bo'ladi. Buxgalteriya hisobini yuqori sifatli IT modernizatsiyasi nafaqat yagona axborot makonini yaratadi, balki barcha darajadagi boshqaruv sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, asosiy e'tibor buxgalterning murakkab operatsiyalar, samarali ichki nazorat mexanizmlari, tahlil va prognozlash, aktivlarni baholash bo'yicha o'z qaroriga qaratiladi. Bundan tashqari, biznesni axborotlashtirish tendensiyasi raqamli formatda ishlay oladigan mutaxassislariga talab yuqori sur'atlarda o'sishiga olib keladi. Biznesga shaxsiy yuqori professional munosabati, professional mulohazasi, fikrlashning moslashuvchanligi, axborot so'rovlariga yo'naltirilgan mutaxassislar qimmatli bo'lib qoladi. Texnologiyalar, axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobi bo'yicha moliya mutaxassislarini vaqt talablarini hisobga olgan holda o'qitish dasturlarini yangilash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni rivojlantirish, shu jumladan ushbu sohadagi professional standartlarga muvofiq ish yuritish talab etiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son.
2. Abdulabbosovna, S. M. (2022). Characteristics of organization of accounting in limited liabilities. *Gospodarka i Innowacje.*, 21, 147-151.
3. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. *Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi"*, 2020. 372 b.
4. Ibragimova, Z. (2021). *BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING HOLATI VA UNING FAOLIYATINI BAHOLASH.* *Scientific progress*, 2(2), 811-815.
5. Khatamovna, R. S. (2022). The Importance of Information about Cost Behavior to Increase Efficiency of Enterprise Management. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 190-195.

6. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya Hisobini Avtomatlashtirish Masalalari. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 107-112.
7. Kunduzova, K. I. (2020). Ways to attract investment and improve its accounting. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 216-221.
8. Mohinur Sattor Qizi Murodova, Nabijon To‘Raql O‘G‘Li Rahmonov, & Husniddin Rajabaliboy O‘G‘Li Mingboyev (2021). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA VA INNOVATSIYA. *Scientific progress*, 1 (6), 729-733.
9. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. *Scientific progress*, 3(1), 442-448.
10. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.
11. Razzaqova, D. A. Q. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(8), 243-249.
12. Sh. Yoldoshmaxmudov (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BUGUNGI KUNDA. *Science and innovation*, 1 (A6), 268-273. doi: 10.5281/zenodo.7133438.
13. Sultonova, M. A. (2021). MAS‘ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI. *Scientific progress*, 2(8), 608-613.
14. Sultonova, M. A. (2022). IQTISODIY ISLOHOTLARNING HOZIRGI BOSQICHI MAS‘ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI. *Scientific progress*, 3(1), 815-823.
15. Комкова, Е. Г. Цифровая экономика / Е. Г. Комкова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 30 (372). — С. 68-70.
16. Кудбиев, Д., & Урмонов, А. А. (2022). Совершенствование Методологии Учета Нематериальных Активов В Условиях Модернизации Экономики. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(11), 1-10.
17. Лабынцев, Н. Т., Макаренко, Е. Н., Алексеева, И. В. [и др.]. Современные тенденции развития отчетности хозяйствующих субъектов : моногр. / под ред. Н. Т. Лабынцева. — Ростов н/Д, 2019.
18. Фарход Турсунов (2021). Цифровая трансформация в экономике. *Общество и инновации*, 2 (3/S), 133-137. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss3/S-pp133-137.
19. Цифровая экономика : учебник для вузов / Л. И. Сергеев, Д. Л. Сергеев, А. Л. Юданова; под редакцией Л. И. Сергеева. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 437 с.
20. Цифровая экономика [Электронный ресурс] : учеб.-метод. комплекс / Г. Г. Головенчик. — Минск : БГУ, 2020.



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).